

Samarqand viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025-yil yanvar-aprel dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2025-yil 1-may holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 083 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 42 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 041 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 11 299,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 107,5 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1 311,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 88,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 988,0 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,7 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 231,9 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 112,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2025-yil yanvar-aprel



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2023-2025 yillar yanvar-aprel, ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025-yil 1-may holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 875 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 31 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 844 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025-yilning yanvar-aprel oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 8 165,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,0 % ga o'sdi.


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 4 084,5 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 94,5 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 50,0 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Jomboy (175,6 %), Narpay (140,4 %), Samarqand (128,4 %), Qo'shrabot (108,9 %) tumanlarida va Samarqand (134,8 %) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025-yil 1-may holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 583 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 13 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 570 tani tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-aprel oylarida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 6 357,9 mlrd so'mga yetib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 9,3 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 72,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

Chop etishga masul: Xizmatlar va savdo sohasi statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: N.Abduraimov Tel: +99866 235 65 80 e-pochta: info@samstat.uz	Ijrochi: Vakant Tel: +99866 235 65 80 e-pochta: info@samstat.uz	Manzil: 140100, Samarqand sh., U.Tursunov ko'chasi, 82
---	---	---	--